
1-SEKTOR HUDUDIDAGI “AYOLLAR DAFTAR”I GA KIRITILGAN XOTIN-QIZLARGA KO’RSATILGAN YORDAMLAR RAQAMLARDA



1-sektor hududidagi “Ayollar daftar”i ga kiritilgan xotin-qizlarga ko’rsatilgan yordamlar raqamlarda

1-sektorda “Ayollar daftari”ga kiritilganlar xotin-qizlar soni 378 nafarni tashkil etadi. Barcha ushbu daftarga kiritilgan ayollarga 100 foiz amaliy ko’mak ko’rsatilgan.

1-toifa bo’yicha 288 nafar “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar ish bilan ta'minlangan.

2-toifa - tadbirkorlik qilish bo’yicha “Ayollar daftari”ga kiritilganlar xotin-qizlar soni 24 nafarni tashkil etadi.

3, 4, 6-toifalar - boquvchisi bo’lmagan, qaramog’ida I va II-guruh nogiron farzandlari bor xotin-qizlar soni 69 nafarni tashkil etadi. Ularga Ayollar jamg’armasi tomonidan bir martalik moddiy yordam ko’rsatilgan.

Har birlariga 1 million 200 ming so’mdan, jami 83 million 800 ming so’m moddiy yordam ko’rsatilgan.

Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo’lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj 23 nafar ehtiyojmand xotin-qizlar sektor kesimida ruyixatga olingan. Bugungi kunda barcha ayollarga amaliy yordam berilib, “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan 33 million 700 ming so’m mablag’ yo’naltirildi.

Qaramog’ida nogironligi bo’lgan farzandi mavjud 21 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga Xalq bankining “Ayollar daftari” jamg’armasidan 21 million 600 ming so’m mablag’ tarqatib berildi.

So’x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-09 15:25:07